

## AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING AYLANMA AKTIVLARINI BOSHQARISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

*Mamajonova Shahnozaxon Mahmudovna*

*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va tadbirkorlik olyi maktabi magistranti*

*Mamajonova\_shm@gmail.com*

**Annotation:** Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma aktivlarini boshqarishning samaradorligini oshirish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Aylanma aktivlarni boshqarish tijorat korxonasi muvaffaqiyatining asosi, ushbu muammozi zamonaviy moliyaviy tahlil doirasida eng ko'p muhokama qilinganayotgan masalalardan bir ihisoblanadi. Shuningdek, maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida "aylanma aktivlar" tushunchasi ko'rib chiqiladi, iqtisodiy faoliyatda ularning aylanish jarayoni taqdim etiladi. Muallifning tadqiqotining asosiy masalasini aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma aktivlarini boshqarishning samaradorligini aniqlash va ulardan unumli foydalanish samaradorligini keyinchalik baholash imkoniyati bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** aksiyadorlik jamiyati, aktiv, aylanma aktiv, aktivlarini boshqarish, aktivlarini boshqarish, boshqarish samaradorligi, fondler, aylanma fondlar, moliyaviy sikl, aggressiv yondashuv, konservativ yondashuv va kompromiss yondashuv.

**Annotation:** this article will talk about ways to improve the effectiveness of the management of revolving assets of Joint-Stock Companies. The basis of the success of a commercial enterprise, the management of revolving assets, this problem is one of the most discussed issues within the framework of modern financial analysis. The article also examines the concept of "working assets" in joint-stock companies, presents the process of their circulation in economic activity. The main issue of the author's research is aimed at harmonizing with the possibility of determining the effectiveness of the management of the revolving assets of Joint-Stock Companies and assessing the effectiveness of their productive use at a later date.

**Keywords:** Joint Stock Company, Asset, revolving asset, asset management, asset management, management efficiency, fondler, revolving funds, financial cycle, aggressive approach, conservative approach and compromise approach.

### Kirish

Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt, xususan, aksiyadorlik jamiyatlari ham kuchli raqobat sharoitiga moslashishi, bozorda o'z o'rni ega bo'lishi va uzoq yillar mobaynida samarali faoliyat yuritishi uchun uzoqni ko'zlangan va tashqi vositalar o'zgaruvchanligi sharoitida uzoq muddatli

moliyaviy maqsadlarni shakllantirish, ular muvaffaqiyatini ta'minlashning eng samarali yo'llarini tanlash, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish yo'nalishlarini samarali tashkil etish yo'lida moliyaviy faoliyat va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning barcha asosiy yo'nalishlarini belgilab olishi zarur. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rinn tutadi. Korxonalar faoliyati davomida moliyaviy munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishi qo'yilgan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy strategik investorlarni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyot o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlashning ustuvorlik kasb etishi va dolzarbligi korporativ boshqaruv sifati va samaradorligi masalalariga e'tiborning kuchayishiga olib keldi. Ayni paytda, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritish xorijiy investor ishtirokini talab qilar ekan, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standart talablari asosida tuzish, menejment samaradorligini ta'minlash va nazorat qilish, dividend siyosatini to'g'ri shakllantirish va aksiyadorlar uchun yuqori daromadni ta'minlash naqadar muhim ekanligini tasavvur etish qiyin emas<sup>1</sup>.

Aylanma aktivlar ishlab chiqarish aktivlari va aylanma fondlarining pul ko'rinishidagi majmuasidir. Aylanma aktivlarning bu tarkibiy qismlari takror ishlab chiqarish jarayoniga har xil xizmat qiladi: birinchisi ishlab chiqarish sohasida, ikkinchisi esa muomala sohasida.

Aylanma aktivlar doimiy harakatda bo'lib, mablag'larning uzluksiz aylanishini ta'minlaydi. Korxona mablag'larining aylanmasi xom ashyo, materiallar, yoqilg'i va boshqa ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun naqd qiymatni oldindan to'lashdan boshlanadi - aylanmaning birinchi bosqichi. Natijada, pul muomaladan, ishlab chiqarish sohasiga o'tishni ifodalovchi zaxiralar shaklini oladi. Bularning barchasi bilan xarajatlar sarflanmaydi, balki oldinga siljiydi, chunki davr tugagandan so'ng u qaytariladi. Aylanmaning ikkinchi bosqichi ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi, bunda ishchi kuchi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishni iste'mol qilishni amalga oshiradi, yangi mahsulotni yaratadi va yangi o'tkazilgan qiymatni tashiydi. Ilg'or qiymat yana shaklini o'zgartiradi - ishlab chiqarishdan tovarga o'tadi. Aylanmaning uchinchi bosqichi - tayyor mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish va pul mablag'larini qabul qilish. Bu bosqichda aylanma aktivlar yana ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga o'tkaziladi. Tovarlarning uzluksiz aylanishi tiklanadi va tovar shaklidagi qiymat pulga o'tadi. Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotishga sarflangan pul miqdori bilan ishlab chiqarilgan mahsulotni (ishni,

<sup>1</sup> Moliyaviy menejment, Ibragimova A., Madaminova Z., Raxmataliyev E.. T: Barkamol fayz mediya.

xizmatni) sotishdan tushgan mablag' o'rta sidagi farq kompaniyaning pul mablag'larini tejashidir<sup>2</sup>.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlari tizimidagi korxonalarning aylanma aktivlarini samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish yo'llari va ahamiyatining nazariy va amaliy jihatlari hamda ularni joriy etish masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma aktivlarini samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish bo'yicha ko'plab nazariy-ilmiy ishlar qilingan va ta'riflar berilgan.

Xususan, iqtisodchi olim Muhammad Ayub logistika infratuzilmasini moliyalashtirish shakllariga ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish ta'sirini ekonometrik modellashtirganda, davlat qarzlari va budget taqchilligi, foyda solig'i, soliqdan ozod qilingan obligatsiyalar, bank qarzlari, korporativ obligatsiyalar, davlat-xususiy sherikchilik va davlat korxonalariga ta'sir etuvchi omillar sifatida o'rgangan<sup>3</sup>.

M.V.Bespalovning fikriga ko'ra, aktivlar – bu muvaffaqiyatli iqtisodiy faoliyat tufayli korxona tomonidan boshqarish uchun olingan mablag'lar. Boshqacha aytganda, bu har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning mulkiy aktivlari yig'indisidir<sup>4</sup>.

N.I.Morozkoning tadqiqotlarida aktivlar - bu moddiy, moliyaviy va nomoddiy aktivlardan tashkil topgan korxona mulki. Moliyaviy aktivlarga pul mablag'lari, debitorlik qarzlari, moliyaviy qo'yilmalar, qimmatli qog'ozlar, kassadagi pul mablag'lari va boshqalar kiradi. Moddiy boyliklar – sanoat, turar-joy va ma'muriy binolar, ishlab chiqarish uskunalari, yer va yoqilg'i, xom ashyo va materiallar zaxiralari. Nomoddiy aktivlar – turli intellektual mulk ob'ektlari (patent, mualliflik huquqi, tovar belgilari va boshqalar) va korxonaning inson resurslaridan foydalanish huquqlari deb aytilib o'tilgan<sup>5</sup>.

"Aktivlar menejmenti" atamasining eng keng e'tirof etiladigan sohalaridan biri bulib, AQShlik iqtisodchi G.Markovis tomonidan ilk tizimlashtirilgan portfel menejmenti, investitsiya fondlarini va alohida mijozlar hisob raqamlaridagi moliyaviy aktivlarni boshqaradigan moliyaviy xizmatlar industriyasi sektori nazarda tutilgan. Iqtisodchi Y.I.Shoxinaning fikricha korxona aktivlarini boshqarish, ya'ni uning mulkiy qiymatliklari tarkibi, tuzilishi va mablag'lar manbalari, ularning dinamikasini baholash

<sup>2</sup> Шохина Е. И. Корпоративные финансы: учебник / коллектив авторов. – М.: КноРус, 2016. - 318 с.

<sup>3</sup> Беспалов М.В., Абдукаримов И.Д. Финансово-экономический анализ хозяйственной деятельности коммерческих организаций. – М.: Инфра-М, 2016. 336 с.

<sup>4</sup> Алексеева А.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М.:КноРус, 2016. 382 с

<sup>5</sup> Морозко Н.И. Финансовый менеджмент. – М.: Инфра-М, 2016. 544 с.

hamda ularni optimallashtirish uchun zarur yo‘nalishlar to‘g‘risida qaror qabul qilish imkonini beradi<sup>6</sup>.

Aktivlar tarkibi, birinchi navbatda, korxona mulkining harakatchanlik darajasini tavsiflaydi, shuningdek, qaysi elementlar ushbu harakatchanlikni ta’minlashini, uni kamaytirish yoki oshirishni aniqlash imkonini beradi deb tavsiflagan.

Yevropa iqtisodchi olimlari Alfred Rappaport va Joel Stern birinchilardan bo‘lib, Miller va Modilyanining qiymatni hisoblash formulalaridan amaliyotda foydalanib, kompyuter jihozlari bozorida aksiyalarning bozor bahosini hisoblashga muvaffaq bo‘lganlar. R.I.Yaushevning ilmiy izlanishlari integratsion korporativ tuzilmalar va ta’sischi kapitalda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish muammolariga bag‘ishlangan. M.B.Xamidulin fond bozorini rivojlanishi, aksionerlik jamiyatlarida kuzatuv kengashining roli va ahamiyati masalalari ustida fikr yuritadi. Uzviy ravishda mazkur masalalar G.K.Saidova, B.Yu.Xodiev, B.B.Berkinov kabi olim va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan<sup>7</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma aktivlarni samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarini optimallashtirish rivojlantirishdagi ahamiyati va zarurati asoslandi. Shuningdek, logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishning iqtisodiy tahlili usullaridan foydalangan holda emitatsion modellar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo’llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Aylanma aktivlarini boshqarishni aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma mablag‘larini boshqarish deyish ham mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma mablag‘lari tarkibiga, uning mulkchilik shakli, xo‘jalik-moliyaviy faoliyatining turi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qancha unsurlar kiritiladi. Aksiyadorlik jamiyatları aylanma aktivlar xususiyatlariga ko‘ra tasniflashtiriladi<sup>8</sup>.

Aylanma mablag‘larning turlarga ajratilishiga ko‘ra:

- xomashyo, material va yarim tayyor mahsulot zahiralari;
- tayyor mahsulot;
- debtorlik qarzlari;
- pul mablag‘lari;


<sup>6</sup> Burxanov A. Moliyaviy xavfsizlik. O‘quv qo’llanma. –Toshkent: Ma’naviyat, 2019. - 92 b.

<sup>7</sup> Xakimov B., Xolmirzaev U. Pul mablag‘lari hisobi va tahlilini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2020 yil.

<sup>8</sup> Moliyaviy menejment, Ibragimova A., Madaminova Z., Raxmataliyev E.. T: Barkamol fayz mediya.

- boshqa turdag'i aylanma mablag'lar.<sup>9</sup>

Aylanma aktivlarni boshqarishning e'tiborli jihat shundaki, ushbu jarayonda moliyaviy menejer kompaniyalarning ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion sikl xususiyatlari, ular o'rtafigagi o'zaro bog'liqliklarni to'g'ri va mukammal mushohada qilishidadir. Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, firma va kompaniyalaming aylanma aktivlarning doiraviy aylanishi yoki yuqoridagi turli bosqich tsikllari, kompaniyalarning dastlabki xomashyo mahsulotini sotib olgan davrdan to tayyor mahsulotning realizatsiyasidan pul mablag'larini kelib tushishigacha bo'lgan barcha oraliq davriy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kompaniyalar aylanma aktivlarini doiraviy aylanishini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari aylanma mablaglarining doiraviy aylanishi<sup>10</sup>**

Kompaniyalarda aylanma aktivlarni boshqarish deyilganda, aylanma aktivlarni doiraviy aylanishining barcha bosqichlari yoki sikllaridagi jarayonlarni boshqarishni tushunish mumkin. Aylanma aktivlarni boshqarish nuqtai nazaridan ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion tsikllarning mohiyati, ularning aylanma aktivlarni doiraviy aylanish jarayonida aynan qaysi bosqichiaa ishtirok etishi, ularning o'zaro bog'liqliklari kabi savollarga oydinlik kiritib olish lozim.

Korxonalaming ishlab chiqarish sikli, mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yoki bevosita ushbu jarayonda foydalaniladigan aylanma aktivlarning to'liq aylanishini, xomashyo, material va yarim tayyor mahsulotlami korxonaga kelib tushgan davrdan boshlab, ularni tayyor mahsulot holatiga keltirishgacha bo'lgan davrni ifodalandaydi. Korxonada ishlab chiqarish siklining davomiyligi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$\text{ITS} = \text{AD (xz)} + \text{AD (tich)} + \text{AD (tm)}$$

Bu yerda:

ITS - korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi, kun hisobida;

AD (xz) - xomashyo va material zahiralarning aylanish davri, kun hisobida;

AD (tich) - tugallanmagan ishlab chiqarishning aylanish davri, kun hisobida;

<sup>9</sup> Burxanov A. Moliyaviy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Ma'naviyat, 2019. - 92 b.

<sup>10</sup> Moliyaviy menejment, Ibragimova A., Madaminova Z., Raxmataliyev E.. T: Barkamol fayz mediya.

AD (tm) - tayyor mahnasulotlarning aylanish davri, kun hisobida<sup>11</sup>.

Moliyaviy sikl – bunda mahsulot yetkazib beruvchilarga olingan xomashyo, materiallar va boshqa turdag'i aktivlar uchun lo'lovlar amalga oshirilgan davrdan boshlab, realizatsiya qilingan yoki yuklab jo 'natilgan tovar, mahsulotlar uchun pul mablaglarini kelib tushishgacha bo'lgan davr tushuniladi. Boshqacha aytganda moliyaviy sikl, korxonalaming pul mablag'larini to'liq aylanish davrini xarakterlaydi, bu jarayon korxonalar tomonidan kreditorlik qarzlarini to'lash davridan boshlab debtorlik qarzlarini undirib olingan davrni o'z ichiga oladi hamda quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi:

$$\text{MTS} = \text{ITS} + \text{AD (dq)} - \text{AD (kq)}$$

Bunda:

MTS - korxonalarda moliyaviy siklning (pulni aylanish tsikli) davomiyligi, kun hisobida;

ITS - korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi, kun hisobida;

AD (dq) - debtorlik qarzlarini o'rtacha aylanish davri, kun hisobida;

AD (kq) - kreditorlik qarzlarini o'rtacha aylanish davri, kun hisobida.<sup>12</sup>

Operatsion sikl - korxonalarda aylanma aktivlarning umurniy summasini to'liq aylanish davrini xarakterlaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$\text{OTS} = \text{ITS} + \text{AD (dq)}$$

Bunda:

OTS - korxonalarda operatsion siklning davomiyligi, kun hisobida;

AD (dq) - debtorlik qarzlarini aylanish davomiyligi, kun hisobida.

Korxonalarda operatsion sikl bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun unga zaruriy xomashyo, material va boshqa turdag'i foydalaniladigan aktivlami sotib olingan kundan boshlab uni realizatsiyasidan pul mablag'larni real kelib tushish oraliq'idagi davrni va jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi keltirilgan formulalardan shu narsani aytish mumkinki, korxonalarda moliyaviy va operatsion tsikllaming qisqartirilishi, moliyaviy resurslami boshqarishning ijobiy tendentsiyalar bilan rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri sanaladi hamda ushbu natijalarga erishishda quyidagi ishlami amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish, (bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtini qisqartirish);

2. Ishlab chiqarilgan mahsulotlami omborlarda uzoq saqlanib qolishini oldini olish, marketing siyosatini to'g'ri tashkil qilgan holda mahsulotlami iste'rnlolchilarga sifatli va o'z vaqtida etib borishini ta'minlash;

<sup>11</sup> Музалёв С.В. Комплексный экономический анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия. – М.: Инфра-М, 2015. 349 с.

<sup>12</sup> Морозко Н.И. Финансовый менеджмент. – М.: Инфра-М, 2016. 544 с.

3. Debitorlik qarzlarini aylanish davrini tezlashtirish, ya’ni realizatsiya qilingan mahsulot va xizmatlar uchun pul mablag‘larini o‘z. vaqtida va to‘liq kelib tushishini ta’minlash va buning hisobiga ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirish;

4. Kreditorlik qarzlarini aylanishini sekinlashtirish, moliyaviy menejer tomonidan bu turdagи ishlами amalga oshirishda yanada ko’proq mas’uliyat bilan harakat qilishni talab qiladi, chunki kreditorlik qarzlari ko’rsatkichlarini yuqori bo‘lib ketishi korxonaning moliyaviy natijalariga va barqarorlik holatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi<sup>13</sup>.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida barcha tarmoq va sohalarda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari qatorida aksiyadorlik jamiyatlarida faoliyat olib boruvchi xo‘jalik subyektlari faoliyatini tashkil qilishda aylanma aktivlarni samarali boshqarish rentabellik va ishbilarmon faollik ko’rsatkichlarini yuksaltirishning bosh omili hisoblanadi.

Aylanma aktivlarni boshqarish tizimi 3 umumiy pirovard natjalarga erishishga shart-sharoit yaratadi:

- aylanma mablag‘larga bo‘lgan moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish orqali moliyalashtirish manbalari tarkibidagi joriy majburiyatlarni minimal darajaga tushirish<sup>14</sup>.

- aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini oshirish orqali korxonalar ishbilarmon faollik ko’rsatkichlarini oshirish<sup>15</sup>.

- aylanma mablag‘larni samarali boshqarish orqali rentabellik ko’rsatkichlarini oshirish uchun ichki operatsion faoliyat imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish<sup>16</sup>.

Yuqoridagi holatlar aylanma mablag‘lar tarkibidagi real ishlab chiqarish va muomala fondlarini optimallashtirish orqali aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ta’minlab, aksiyadorlik jamiyatlari real bozor qiymatini maksimallashtirishga shart-sharoit yaratadi.

Aylanma aktivlarni boshqarishga nisbatan yondashuv 3 asosiy turkumga ajratiladi. Bular: agressiv, konservativ va kompromiss yondashuvlar hisoblanib, ushu yondashuvlar aylanma aktivlarni boshqarishga nisbatan qanday instrumentlardan foydalanish va natijada balans aktivlari va passivlarining tarkibiy tuzilmasi nuqtayı nazaridan farqlanadi. Xususan, aylanma aktivlarni boshqarishga nisbatan agressiv yondashuvga muvofiq tashqi bozorlardagi logistik xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi natijasida bozordagi pozitsiyani mustahkamlashda joriy majburiyatlarning ortishi hisobiga aylanma mablag‘larni shakllantirish va uning tarkibidagi debtorlik

<sup>13</sup> Ковалев В.В. Финансовый менеджмент. Теория и практика. – М.: Проспект, 2016. 439 с.

<sup>14</sup> García-Teruel, Pedro Juan, and Pedro Martínez-Solano. “Effects of working capital management on SME profitability”. // International Journal of managerial finance 3.2 (2007): 164-177.

<sup>15</sup> Natsypaeva Y.A. “Overview of existing approaches to business activity of enterprise assessment”. Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета 3 (2011): 85-87.

<sup>16</sup> Temitime, Zelealem Tadesse. Relationship between working capital management, policies, and profitability of small manufacturing firms. Diss. Walden University, 2016.

qarzlarining yuqori ulushi sharoitida sotish bozorlari segmentlarini kengaytirishga qaratiladi. Ushbu siyosat sharoitida korxona aylanma aktivlari aylanuvchanligining sekinlashishi va likvidlilikni yo‘qotish riski ehtimolligi oshsa-da, xizmatlar hajmi va spektrini kengaytirish orqali asosiy faoliyat foydasini oshirishga qaratadi<sup>17</sup>.

Konservativ yondashuvdagi aylanma aktivlarni boshqarish, bozordagi xizmatlar hajmi va spektrini kengaytirish mayjud ichki moliyaviy imkoniyat va samaradorlikning muvozanatli ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Bunday sharoitda bozordagi xizmatlar segmentini qamrab olish va pozitsiyani yanada mustahkamlash hisobiga samaradorlik va ishbilarmon faollikni yo‘qotish riskiga moyillik past darajada qoladi. Har ikkala yondashuv sharoitida ham ma’lum imkoniyatlar va xatarlar muvozanatini ta’minalash maqsadida, fikrimizcha, kompromiss siyosatini yuritish istiqbolda barqaror biznes taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, aksariyat aksiyadorlik jamiyatlari aylanma aktivlari tarkibida muomala fondlarining (debitorlik qarzları) va pul mablag‘lari ekvivalentlari) yuqori ulushi aylanma aktivlar aylanuvchanligi orqali ifodalanadigan ishbilarmon faollik ko‘rsatkichining past bo‘lishiga ta’sir etadi<sup>18</sup>.

Yuqoridagilarga asoslangan holda quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin:

- aksiyadorlik jamiyatlarida aylanma aktivlar tarkibida muomala fondlarining yuqori ulushi ularning ishbilarmon faollik ko‘rsatkichlariga ta’sir etadi. Aylanma aktivlarining aylanish tezligi nisbatan sekinlashuvi, pirovardida, aylanma mablag‘lar rentabellik darajasi past ko‘rsatkichini ta’milanadi.
- natijada aksiyadorlik jamiyatlarida debitorlik qarzlarini samarali boshqarish va pul mablag‘larini qisqa muddatli moliyaviy aktivlarga investitsiyalash orqali aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi va rentabellik ko‘rsatkichlarini oshirishda imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi<sup>19</sup>.
- aksiyadorlik jamiyatlarida aylanma mablag‘larini tarkibiy optimallashtirish orqali ularga bo‘lgan ehtiyojlarni minimallashtirish hisobiga korxonalarini moliyalashtirish manbalari tarkibida joriy kreditorlik qarzları va qisqa muddatli majburiyatlarini so‘ndirish imkoniyatlari mavjud. Bu, o‘z navbatida, muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga imkoniyat mavjudligini tasdiqlaydi.

<sup>17</sup> Mavlyanova D., Joriy aktivlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligi va ulardan foydalanish samaradorligini tekshirish masalalari. Iqtisodiyot Va ta’lim, 2023, 24(5), 98–103

<sup>18</sup> Алексеева А.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М.:КноРус, 2016. 382 с

<sup>19</sup> Музалёв С.В. Комплексный экономический анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия. – М.: Инфра-М, 2015. 349 с.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aylanma aktivlarni boshqarish siyosati korxonalar moliyaviy strategiyasining muhim qismi sanalib, bu siyosatning asosiy maqsadi korxonalarda yetarii miqdorda aylanma aktivlarni hajmi va tarkibini shakllantirish, hamda ularni moliyalashtirish manbalari tizimini optimallashtirishdan iborat.

Aksiyadorlik jamiyatlarida aylanma aktivlarni boshqarish siyosati quyidagi tartibda (ketma-ketlikda) amalga oshiriladi.

1. Aksiyadorlik jamiyatlari aylanma aktivlarining tahlili. Bu jarayonda aylanma aktivlarning barcha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ulaming awalgi-yillarga nisbatan o'sish darajalari, tarkibiy o'zgarishlari, rentabellik ko'rsatkichlari va shu kabi taxliliy ishlar amalga oshiriladi.

2. Aylanma aktivlarni tashkil qilish yoki shakllantirishni eng maqbul turini tanlash. Bunda korxonalarda aylanma aktivlarni tashkil qilishni uch xil yondashuvi mavjud bo'ladi.

3. Aylanma aktivlarning miqdorini optimallashtirish.

4. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini takomillashtirish, lo'lov qobiliyatini mustahkamlash maqsadida, aylanma aktivlarning likvidlik darajalarini shunga mos holda oshirib borishni ta'minlash.

5. Aksiyadorlik jamiyatlarida belgilangan rivojlantirish dasturlarining ijroMiui amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan miqdorda, aktivlardan foydalanishning rentabellik darajasini ta'minlash.

6. Aylanma aktivlardan foydalanish jarayonida ulaming yo'qotiiishi yoki shikast etishi kabi holatlar yuz berishini minimallashlirish va oldini olish uchun sharoitlar yaratish.

7. Aylanma aktivlami moliyalashtirish manbalarini optimal tizimini shakllantirish.

Shunday qilib, aylanma aktivlarini boshqarishning samaradorligini tahlil qilish joriy faoliyatning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, korxonaning barqaror va etarlicha to'lov qobiliyatini ta'minlashda investitsiya qilingan kapitalga daromadni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Bu jarayon juda mashaqqatli, jiddiy yondashuvni talab qiladi; samarali faoliyat yuritish uchun korxona malakali siyosatni olib borishi va korxonaning yanada rivojlanishini rejalasi yuqori darajada bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: "Adolat", 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli Qonuni

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston , 2017. – 104 b.
5. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. - 448 b.
6. Alimardonov M., To‘xsanov Q. Soliq nazariyasi. –T.: “O‘zbekiston Yozuvchilaru yushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti”, 2005. -175 b.
7. Шохина Е. И. Корпоративные финансы: учебник / коллектив авторов. – М.: КноРус, 2016. - 318 с.
8. Алексеева А.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М.:КноРус, 2016. 382 с
9. Беспалов М.В., Абдукаrimov И.Д. Финансово-экономический анализ хозяйственной деятельности коммерческих организаций. – М.: Инфра-М, 2016. 336 с.
10. Ковалев В.В. Финансовый менеджмент. Теория и практика. – М.: Проспект, 2016. 439 с.
11. Морозко Н.И. Финансовый менеджмент. – М.: Инфра-М, 2016. 544 с.
12. Музалёв С.В. Комплексный экономический анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия. – М.: Инфра-М, 2015. 349 с.
13. Якушина Н.В. Финансовая безопасность предприятия // Вестник Университета, № 11, 2013. –с.132-135.
14. Burxanov A. Moliyaviy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Ma’naviyat, 2019. - 92 b.
15. Xakimov B., Xolmirzaev U. Pul mablag‘lari hisobi va tahlilini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2020 yil.
16. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma Raximov M.Yu. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Toshkent Moliya instituti. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. 392 b.
17. <https://www.davaktiv.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy sayti
18. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
19. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
20. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
21. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti